



METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE STUDY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN MORALITY AND LAW: IN THE CONTEXT OF SOCIO-SPIRITUAL STABILITY

Jobirjon Saitmurodov

Associate Professor at Renaissance University

Researcher at the Institute of Social and

Spiritual Research at the Republican

Center for Spirituality and Enlightenment

j_saitmurodov@renessans-edu.uz

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: morality, law, socio-spiritual stability, functional harmony, legal norm, moral value, responsibility, justice, social trust, legality.

Received: 22.07.26

Accepted: 23.07.26

Published: 24.07.26

Abstract: The article provides a methodological analysis of the relationship between morality and law in the context of socio-spiritual stability. It attempts to substantiate that, although morality and law are independent normative systems, they are functionally and task-wise close to each other in social life. The role of both systems in regulating human behavior, forming responsibility, strengthening the criteria of justice, exercising social control, as well as ensuring trust, solidarity and legality in society, is comparatively analyzed on the basis of ethical-political, Eastern-Muslim philosophical, normative-legal, sociological and integrative approaches.

AXLOQ VA HUQUQ MUNOSABATINI O'RGANISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI: IJTIMOY-MA'NAVY BARQARORLIK KONTEKSTIDA

Jobirjon Saitmurodov

Renessans universiteti dotsenti

Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat Markazi

huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi

j_saitmurodov@renessans-edu.uz

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: axloq, huquq, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik, funksional uyg'unlik, huquqiy norma, axloqiy qadriyat, mas'uliyat, adolat, ijtimoiy ishonch, qonuniylik.

Annotatsiya: Maqolada axloq va huquq munosabati ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik kontekstida metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Unda axloq va huquq mustaqil normativ tizimlar bo'lishiga qaramay, jamiyat hayotida funksional-vazifaviy jihatdan o'zaro yaqin ekanligi asoslashga harakat qilinadi. Har ikki tizimning inson xatti-harakatini tartibga solish, mas'uliyatni shakllantirish, adolat mezonlarini mustahkamlash, ijtimoiy nazoratni amalga oshirish, shuningdek jamiyatda ishonch, hamjihatlik va qonuniylikni ta'minlashdagi o'zaro axloqiy-siyosiy, Sharq-musulmon falsafiy ta'limotlari, normativ-huquqiy, sotsiologik va integrativ yondashuvlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ВЗАИМОСВЯЗИ МОРАЛИ И ПРАВА В КОНТЕКСТЕ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

Жобиржон Саитмуродов

Доцент университета Ренессанс,

Исследователь института социально-духовных исследований при

Республиканском центре духовности и просветительства

j_saitmurodov@renessans-edu.uz

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мораль, право, социально-духовная стабильность, функциональная гармония, правовая норма, нравственная ценность, ответственность, справедливость, социальное доверие, законность.

Аннотация: В статье методологически анализируется соотношение морали и права в контексте социально-духовной стабильности. В ней предпринимается попытка обосновать, что, несмотря на самостоятельный характер морали и права как нормативных систем, в общественной жизни они обладают функционально-задачной близостью. Роль обеих систем в регулировании поведения человека, формировании ответственности, укреплении критериев справедливости, осуществлении социального контроля, а также обеспечении доверия, солидарности и законности в обществе подвергается сравнительному анализу на основе этико-политического, восточно-мусульманского философского, нормативно-правового, социологического и интегративного подходов.

Kirish. Bugungi axborot oqimining tezlashuvi, qadriyatlarning o'zgarib borishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida jamiyat barqarorligini ta'minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Barqarorlikni faqat iqtisodiy o'sish, siyosiy boshqaruv yoki huquqiy tartib bilan izohlash yetarli emas. Chunki jamiyatning uzoq muddatli barqarorligi insonlar o'rtasida ishonch, axloqiy mas'uliyat, huquqiy madaniyat va umumiy qadriyatlarga tayangan holda shakllanadi. Shu bois ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik masalasini axloq va huquq munosabati doirasida o'rganish muhim ilmiy-metodologik vazifa hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida inson qadri va uni ulug'lash, adolat, qonun ustuvorligi, ma'naviyat va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Sh.Mirziyoyev ham "bugungi murakkab va shiddatli zamonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni va ta'siri tobora ortib borayotganini hisobga olib, bu sohadagi faoliyatni kuchaytirish zarurligiga alohida urg'u beradi" [1, 33-b.]. Ushbu mulohaza jamiyatning taraqqiy etishi faqat shakily jihatdan o'zgarish jarayoni emas, balki mazmun jihatidan ya'ni ichki ma'naviy yangilanish, qadriyatlar barqarorligi va fuqarolik madaniyatining yuksalishi bilan bog'liq holda tushunish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik jamiyat a'zolari tomonidan axloqiy qadriyatlar, ma'naviy ideallar va huquqiy me'yorlarning ichki-ruhiy jihatdan e'tirof etilishi hamda amaliyotda namoyon bo'lishi asosida shakllanadigan, o'zaro ishonch, ijtimoiy hamjihatlik, birdamlik, ijobiy ijtimoiy kayfiyat va qonuniylikni ta'minlaydigan ijtimoiy holat sifatida talqin qilinadi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda axloq va huquq uyg'unligi muhim ahamiyatlidir. Ularni alohida mustaqil normativ tizimlar ekanligini inkor etmagan holda, axloq va huquqning uyg'unligi, avvalo, jamiyat hayotidagi funksional-vazifaviy jihatdan birligida namoyon bo'ladi. Chunki axloq ham, huquq ham inson xatti-harakatini tartibga solish, fuqarolik mas'uliyatni shakllantirish, adolat mezonlarini mustahkamlash, ijtimoiy nazoratni amalga oshirish va shu orqali jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotimizning maqsadi axloq va huquq munosabatini o'rganishda mavjud bo'lgan asosiy metodologik yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularning ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni shakllantirish va mustahkamlashdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Shuningdek, axloq va huquqni mutlaq aynanlashtirish yoki ularni bir-biridan to'liq ajratish yondashuvlari yetarli emasligi, aksincha, ularning mustaqil normativ tabiatini saqlagan holda funksional uyg'unligini asoslashga e'tibor qaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Axloq va huquq munosabati falsafa, etika, huquq falsafasi, sotsiologiya va ma'naviyatshunoslik nuqtai nazaridan turli davrlarda har xil metodologik

yondashuvlar asosida o'rganilgan. Bu yondashuvlarni shunchaki tarixiy ketma-ketlikda sanab o'tish emas, balki ularning axloq va huquq tushunchalarini qanday qilib tushuntirganini aniqlash muhimdir.

Antik falsafada axloq va huquq munosabati, avvalo, ezgulik, adolat, fazilat va polis tartibi orqali talqin qilingan. Masalan, Aristotel "inson faoliyati davomida muayyan ezgulikka intilishi ya'ni munosib, axloqan fazilatli odam bo'lmog'i kerakligi", [2, 115-b.] siyosat esa eng oliy ezgulikni ko'zlovchi amaliy fan sifatida namoyon bo'lishini asoslashga harakat qiladi. Bu yondashuvda huquq tashqi majburlov vositasi sifatida emas, balki fuqarolar hayotini adolat va umumiy ezgulik sari yo'naltiruvchi tartib sifatida tushuniladi. Ko'rishimiz mumkinki, Aristotel qarashlarida axloqiy fazilat va huquqiy-siyosiy tartib ajralgan sohalar emas, balki polisda tartibni saqlovchi bir-biriga bog'liq asoslar sifatida namoyon bo'ladi.

Sharq-musulmon falsafasida axloq va huquq munosabati baxt-saodat, inson kamoloti, adolatli boshqaruv va inson manfaatlarini muhofaza qilish bilan bog'liq holda talqin qilingan. Forobiyning axloqiy qarashlarida "fozil shahar, uning boshqaruv shakli, rais, hokim va shahar aholisining qanday axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerakligi jihatidan tahlil qilinadi" [3, 241-268-b.]. Uning yondashuvida jamiyatdagi tartib shahar hokimining axloqiy fazilatlariga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, hokimning ko'p fazilatlar egasi bo'lishi, nafaqat shaharda tinchlik va tartibni ta'minlaydi balki shahar aholisining ham baxt-saodatga erishuvida ahamiyatli hisoblanadi. Chunki axloqiy fazilatlar egasi bo'lgan hukmdorning chiqargan farmonlari majburiy huquqiy tusga ega bo'lgan. Shu sababli Forobiy qarashlari axloq va huquq uyg'unligini ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikning sharqona nazariy asoslaridan biri sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Molikiylik fiqhiy maktabining taniqli olimi andalusiyalik Shatibiyning yondashuvi esa huquq va axloqqa oid qarashlari ham juda muhim. Masalan, Zeynep Cerrah uning qarashlari asosida huquq va axloq munosabatini tahlil qilib, "huquq va axloq maqsad nuqtasida birlashishi, huquq va axloq sohaları o'zaro ichki aloqador ekani hamda huquqning maqsadi axloqiy mazmunga ega ekanini" ta'kidlaydi. [4, 3-4-b.]. Ushbu yondashuv shuni ko'rsatadiki, huquq faqat rasmiy qoida emas, balki inson manfaatlari, ijtimoiy tartib va axloqiy maqsadlarni himoya qiluvchi tizimdir.

Ibn Sino falsafiy merosida axloq inson kamoloti, aql, nafs tarbiyasi va baxt-saodatga erishish bilan bog'liq holda uchraydi. Uning "Al-Ishorat va at-tanbihot" asarida baxt-saodat masalasi ichki lazzat, axloqiy tanlov va inson kamoloti bilan bog'lab tahlil qilingani ko'rsatiladi [5, 395-b.]. Ushbu mulohaza bizga ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikning shaxsiy-axloqiy asoslari bilan ham bog'liq ekanligini tushunishga yordam beradi.

Yangi davr falsafasida axloq va huquq munosabati asosan erkinlik, burch, qonun va ijtimoiy institut kabi tushunchalar bilan tahlil qilindi deyishimiz mumkin.

F.Gegel o'zining "Huquq falsafasi" asarida abstrak huquq, axloq va axloqiylikni alohida shaklda tushuntirsa-da, lekin ularni erkinlikning rivojlanish bosqichlari sifatida tushuntiradi. U "abstrak huquq, axloq va axloqiylikni alohida qismlar sifatida berishi huquqiy norma, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi dialektik aloqani ko'rsatadi" [6, 3-4-b.]. Shuningdek, F.Gegel huquq haqida gapirganda faqat fuqarolik huquqi emas, balki axloq, axloqiylik va jahon tarixi ham nazarda tutilishi haqidagi yondashuvi axloq va huquqni keng ijtimoiy-ma'naviy tizimda talqin qilish imkonini beradi [6, 50-51-b.].

Keyinchalik vujudga kelgan huquqiy pozitivizmga esa axloq va huquq munosabati biroz boshqacha tushuntiriladi. Masalan, Hans Kelzen "Sof huquq nazariyasi" asarida huquqni axloqiy, siyosiy va tabiiy-huquqiy qarashlardan ajratilgan mustaqil normativ tizim sifatida tahlil qiladi. Süleyman Ruhi Aydemirga ko'ra, "huquq ilmi har qanday axloqiy, ideologik va tabiiy huquqqa oid qarashlardan tozalanishi kerakligi, pozitiv huquqiy metod tabiiy huquq metodidan aniq farqlanishi zarurligi ko'rsatiladi" [7, 1-b.]. Bu yondashuv huquqiy aniqlik va normativ tartibni asoslashda muhim bo'lsa-da, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik nuqtai nazaridan huquqning axloqiy legitimlik, ishonch va adolat bilan bog'liqligini yetarlicha ochib bera olmaydi.

Huquq va axloqni integrativ jihatdan o'rganganimizda L.Fuller, R.Dvorkin, G.Radbrux va J.Finnis kabi bir qator tadqiqotchilar ularni mutlaq ajratilishini tanqid ostiga olganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, G.Radbrux pozitiv qonun va adolat o'rtasidagi ziddiyat chidab bo'lmaz darajaga yetganda, bunday qonun noto'g'ri norma sifatida adolatga yo'l berishi lozimligini asoslaydi" [8, 1-11-b.]. Uning bu qarashi biz tadqiqotda ilgari surayotgan tezisga bevosita bog'liq bo'lib, jamiyatda har qanday huquqiy norma o'zining barqaror ta'sirini axloqiy e'tirof, adolat hissi va ijtimoiy ishonch bilan uyg'unlashgandagina to'liq namoyon etadi.

Axloq va huquqqa sotsiologik jihatdan qaralganda, ushbu tushunchalar jamiyatning birdamligi, intizomi va ijtimoiy tartibini ta'minlovchi mexanizmlar sifatida namoyon bo'lishini ko'ramiz. E.Dyurkgeym "Axloqiy tarbiya" asarida intizomning inson xatti-harakatlarini cheklash orqali faqat jamiyat manfaatlariga emas, balki shaxsning o'z ma'naviy sog'lomligi va baxtiga ham xizmat qilishini asoslaydi. Unga ko'ra, "intizom zarur chegaralarni belgilaydi, inson xatti-harakatini tartibga soladi va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytiradi" [9, 48-b.]. Ushbu yondashuv orqali biz axloqni faqat individual fazilat emas, balki jamiyatni barqarorlashtiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida tushunishimiz mumkin.

Milliy-ma'naviy jihatdan axloq va huquqqa yondashganimizda Abdulla Avloniyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari alohida ahamiyatga ega. U o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq"

asarida axloqni insonni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi va xulqni tarbiya orqali shakllantiruvchi ilm sifatida talqin qiladi [10, 2-b.]. Avloniy qarashlarida ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikning tarbiyaviy asosi muhim bo'lib, jamiyatda ishonch, hamjihatlik va qonuniylik faqat tashqi nazorat bilan emas, balki insonning axloqiy tarbiyasi, yaxshi xulqi va mas'uliyati bilan mustahkamlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Axloq va huquq munosabatini o'rganishda ijtimoiy-falsafiy, tarixiy-falsafiy, qiyosiy-komparativ, aksiologik, strukturaviy-funksional va germeneytik yondashuvlardan foydalanildi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv axloq va huquq tushunchalarini jamiyat barqarorligini ta'minlovchi normativ tizimlar sifatida tahlil qilishga xizmat qildi. Tarixiy-falsafiy yondashuv orqali turli davr va falsafiy maktablarda axloq va huquq munosabati qanday tushunilgani va talqin qilingani ochib berildi. Qiyosiy-komparativ yondashuv yordamida antik, Sharq-musulmon, klassik, pozitivistik, sotsiologik va milliy-ma'naviy yondashuvlar o'zaro taqqoslandi. Aksiologik yondashuv huquqiy me'yorlari va axloqiy qadriyatlarning adolat, mas'uliyat, vijdon va ijtimoiy ishonch bilan bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi. Strukturaviy-funksional yondashuv esa axloq va huquqning jamiyatdagi vazifalarini – tartibga solish, nazorat qilish, tarbiyalash, mas'uliyatni shakllantirish, integratsiyalash va barqarorlashtirish funksiyalarini aniqlashda muhim bo'ldi. Germaneytik yondashuv manbalardagi asosiy tushunchalarni – ezgulik, adolat, burch, norma, intizom, saodat, qonuniylik va mas'uliyatni maqola mavzusi kontekstida talqin qilish imkonini yaratdi.

Ushbu tadqiqotimizda axloq va huquqni bir-biriga aynanlashtirish, yoki mutlaq ajratish maqsad qilinmagan. Chunki ular vujudga kelish manbasi, amal qilish shakli va sanksiyasi jihatidan farqli tizimlardir. Axloq, avvalo, ichki e'tiqod, vijdon, burch va ijtimoiy baho orqali amal qiladi. Huquq esa rasmiy norma bo'lib, davlat organlarining faoliyati va yuridik javobgarlik orqali namoyon bo'ladi. Biroq jamiyat hayotidagi vazifalari jihatidan ular o'zaro yaqinlashadi. Har ikkisi ham inson xatti-harakatlari uchun chegarlarni belgilaydi, ijtimoiy tartibni mustahkamlaydi, adolat mezonlarini aniqlab beradi va jamiyatda tartibni ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Nazariy jihatdan tahlillar shuni ko'rsatadiki, axloq va huquq munosabati tarixiy-falsafiy tafakkurda turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, ularning ijtimoiy vazifalarida muayyan umumiyliklar ko'zga tashlanadi. Antik falsafada bu umumiylik adolat va fazilat orqali, Sharq-musulmon falsafiy tafakkurida baxt-saodat va maqsadlar birligi orqali, yangi davr falsafasida (yoki nemis klassik falsafasida) erkinlik va axloqiylik orqali, pozitivizmida normativ tartib orqali, sotsiologiyada esa ijtimoiy birdamlik va intizom orqali tushuntirilgan.

Birinchi metodologik yo'nalish – axloqiy-siyosiy yondashuvdir. Bu yondashuvda huquqiy tartib axloqiy ezgulik va adolatdan ajratilmaydi. Aristotel uchun siyosiy hayotning maqsadi oliy

ezgulikka erishish bo'lsa, huquqiy tartib fuqarolar hayotini ana shu maqsad sari yo'naltiruvchi vosita sifatida ko'riladi. Bunday yondashuvda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik adolatli qonunlar, fazilatli fuqarolar va umumiy ezgulikka yo'naltirilgan siyosiy muhit orqali ta'minlanadi.

Ikkinchi yo'nalish – Sharq-musulmon falsafiy yondashuvidir. Forobiy, Shatibiy va Ibn Sino qarashlarida axloq va huquq insonni kamolotga yetaklash, jamiyatda adolat va baxyt-saodatni qaror toptirish, manfaat va mas'uliyat muvozanatini ta'minlash bilan bog'liq. Shatibiy yondashuvida huquqning maqsadi axloqiy mazmun bilan tutashadi. Bu esa huquqiy normalar jamiyatda axloqiy jihatdan e'tirof etilishi uchun ular inson manfaatlari va ijtimoiy adolat bilan bog'liq bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik nuqtai nazaridan bu yondashuv huquqiy me'yorning axloqiy legitimligini asoslashda juda muhimdir.

Uchinchi yo'nalish – dialektik-institutsional yondashuvdir. Ya'ni F.Gegel abstrak huquq, axloq va axloqiylikni erkinlikning turli bosqichlari sifatida tushuntiradi. Uning yondashuvida abstrak huquq tashqi norma, axloq shaxsiy mas'uliyat, axloqiylik esa oila, fuqarolik jamiyati va davlat kabi institutlarda mujassamlashgan ijtimoiy tartib sifatida namoyon bo'ladi. F.Gegelnig bu yondashuvi bizga ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik faqatgina individual axloq va rasmiy huquqiy normalar bilan emas, balki qadriyatlar, normalar va institutlarning o'zaro uyg'un holda harakat qilishi orqali ta'minlanishini ko'rsatadi.

To'rtinchi yo'nalish – pozitivistik-normativ yondashuvdir. H.Kelzen huquqni axloqdan ajratishga intiladi va uni o'z ichki normativ tuzilmasiga ega mustaqil tizim sifatida tushuntiradi. Bu yondashuv huquqiy aniqlik, normativ izchillik va formal tartibni ta'minlashda zarurdir. Chunki huquq o'z mustaqil me'yoriy shakliga ega bo'lmasa, u axloqiy baholar yoki siyosiy manfaatlar ta'sirida barqarorligini yo'qotishi mumkin. Biroq ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik uchun faqat normativ aniqlik yetarli emas. Qonun jamiyat ongida adolatli, zarur va umumiy manfaatga xizmat qiluvchi me'yor sifatida qabul qilinmasa, u ichki-ruhiy jihatdan e'tirof etilgan tartibni ta'minlovchi vositaga aylanmaydi. Shu sababli pozitivistik yondashuv huquqning mustaqilligini ko'rsatsa-da, axloqiy legitimlik muammosini to'liq hal qila olmaydi.

Beshinchi yo'nalish – sotsiologik yondashuvda axloq jamiyatni birlashtiruvchi va intizom orqali ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi kuch sifatida tushuntiriladi. Bu yondashuv ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikning muhim sharti sifatida jamiyatda kishilar nafaqat huquqiy majburiyatlarni bilishi, balki umumiy tartib, burch va mas'uliyatni ichki-ruhiy ehtiyoj sifatida qabul qilishi kerakligini ochib beradi.

Oltinchi yo'nalish – integrativ yondashuvdir. Ushbu yondashuvni ilgari surgan olimlar huquq va axloqni bir-biridan mutlaq ajratish yetarli emasligini asoslashga harakat qilishgan. Ularning fikrlariga ko'ra, huquq va axloq farqli tizimlar hisoblansa-da, jamiyatda bajaradigan

vazifalari jihatidan bir-birini to'ldirishi, hamda huquq yuridik javobgarlikni belgilasa, axloq ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytirishini aytib o'tadilar.

Yettinchi yo'nalish – milliy-ma'naviy yondashuv bo'lib, unda axloq va huquq munosabati xalqning tarixiy xotirasi, milliy tarbiya tizimi, jamoaviy ong, urf-odatlar, milliy qadriyatlar va fuqarolik mas'uliyati bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy madaniyat faqat qonunlarni bilish yoki ularga tashqi rioya qilish bilan cheklanmaydi; u shaxsning ichki axloqiy mas'uliyati, vijdon, burch, uyat, or-nomus va jamoa manfaatiga daxldorlik hissi bilan mustahkamlanadi.

Bu yondashuv Yangi O'zbekiston sharoitida huquqiy madaniyatni ma'naviy tarbiya bilan bog'lab rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki huquqiy madaniyat faqat qonunni bilish bilan emas, balki adolat, halollik, vijdon, mas'uliyat va jamoa manfaatiga hurmat kabi axloqiy qadriyatlar bilan mustahkamlanadi.

Quyidagi keltiriladigan jadval orqali axloq va huquq munosabatiga oid asosiy metodologik yondashuvlar ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik nuqtai nazaridan umumlashtiriladi.

1-jadval. Axloq va huquq munosabatini o'rganishdagi metodologik yondashuvlar

Metodologik yondashuv	Asosiy vakillar	Axloq va huquqni tushunish shakli	Ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikka ta'siri
Axloqiy-siyosiy yondashuv	Aristotel	Axloqiy fazilatlar, adolat va siyosiy tartib o'zaro bog'liq	fuqarolik burchi va adolatli tartibni shakllantiradi
Sharq-musulmon falsafiy yondashuvi	Forobiy, Shatibiy, Ibn Sino	huquq va axloq baxt-saodat, manfaat, inson kamoloti va adolatga xizmat qiladi	ma'naviy mas'uliyat va adolatli boshqaruvni mustahkamlaydi
Dialektik-institutsional yondashuv	F.Gegel	huquq, axloq va axloqiylik erkinlikning bosqichlari sifatida talqin qilinadi	qadriyat, norma va institutlar uyg'unligini ta'minlaydi
Pozitivistik-normativ yondashuv	H.Kelzen	huquq axloqdan ajratilgan mustaqil normativ tizim sifatida ko'riladi	huquqiy aniqlik va normativ tartibni kuchaytiradi
Sotsiologik yondashuv	Dyurkgeym	axloq ijtimoiy intizom, birdamlik va umumiy ong mexanizmi sifatida tushuniladi	hamjihatlik, intizom va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi

Integrativ yondashuv	L.Fuller, R.Dvorkin, G.Radbrux, J.Finnis	huquq va axloqni mutlaq ajratish mumkin emasligi asoslanadi	ishonch, mas'uliyat va qonuniylikni mustahkamlaydi
Milliy-ma'naviy yondashuv	A.Avloniy	axloq tarbiya, yaxshi xulq va millat kamoloti bilan bog'lanadi	fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy birlikni kuchaytiradi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, axloq va huquq munosabatiga oid yondashuvlar turli metodologik asoslarda shakllangan bo'lsa-da, ularning barchasida ijtimoiy tartib, adolat, mas'uliyat, ishonch va barqarorlik masalalari muayyan darajada mavjud. Farq shundaki, ayrim yondashuvlar axloqiy fazilatni, boshqalari normativ aniqlikni, yana boshqalari ijtimoiy birdamlik yoki axloqiy tarbiyani asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

Bizningcha, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni tushuntirishda ushbu yondashuvlarning birortasini mutlaq yetarli deb bo'lmaydi. Ularni umumlashtiruvchi asos axloq va huquqning funksional-vazifaviy uyg'unligidir. Bu uyg'unlik o'zini uch bosqichda namoyon qiladi.

Birinchisi – regulyativ daraja bo'lib, unda axloq ham, huquq ham inson xatti-harakatini me'yorlaydi. Axloq buni vijdon, burch, uyat va ijtimoiy baho orqali amalga oshirsa, huquq rasmiy norma, taqiq, majburiyat va yuridik javobgarlik orqali amalga oshiradi.

Ikkinchisi – aksiologik bosqich. Har ikki tizim adolat, mas'uliyat, halollik, tartib va umumiy manfaat bilan bog'liq qadriyatlarga tayanadi.

Uchinchisi – ijtimoiy bosqich. Axloq va huquq jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik, qonuniylik va barqarorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik axloq va huquqning qo'shilib ketishi natijasi emas, balki ularning mustaqil holda, biroq o'zaro muvofiq va bir-birini to'ldiruvchi tarzda amal qilishi orqali shakllanadi. Axloq huquqiy me'yorlarning ichki-ruhiy jihatdan e'tirof etilishiga xizmat qiladi, huquq esa axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy voqelikda barqaror tartibga aylanishini kafolatlaydi. Agar huquq axloqiy asosdan uzilsa, u faqat tashqi majburlovga aylanadi. Agar axloq huquqiy normalar bilan mustahkamlanmasa, u ko'pincha umumiy nasihat yoki shaxsiy e'tiqod darajasida qolib ketishi mumkin. Bizningcha, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik aynan mana shu ikki tizimning funksional uyg'unligi orqali mustahkamlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, axloq va huquq munosabati turli davr va maktablarda har xil metodologik asoslarda ko'rib chiqilgan. Antik falsafada u adolat va fazilat

orqali, Sharq-musulmon falsafasida baxt-saodat, manfaat va axloqiy maqsadlar orqali, klassik falsafada erkinlik va axloqiylik, pozitivizmida mustaqil normativ tartib orqali, sotsiologik yondashuvda esa ijtimoiy birdamlik va intizom orqali izohlangan. Ushbu yondashuvlarning barchasi ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni tushunishda muayyan ilmiy ahamiyatga ega. Demak, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik axloqiy qadriyatlar, ma'naviy ideallar va huquqiy me'yorlarning jamiyat a'zolari tomonidan ichki-ruhiy jihtdan e'tirof etilishi hamda ijtimoiy amaliyotda namoyon bo'lishi orqali shakllanadi. Bunday barqarorlik o'zaro ishonch, hamjihatlik, birdamlik, ijobiy ijtimoiy kayfiyat va qonuniylik muhitida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Axloq va huquq mustaqil normativ tizimlar bo'lib, ularning manbasi, amal qilish mexanizmi va ta'sir shakllari bir xil emas. Axloq ko'proq vijdon, burch, ichki e'tiqod va ijtimoiy baho orqali namoyon bo'lsa, huquq rasmiy norma, davlat kafolati va yuridik javobgarlik orqali amal qiladi. Biroq jamiyat hayotidagi vazifalari nuqtai nazaridan ular o'zaro yaqin: har ikkisi inson xatti-harakatini tartibga solish, mas'uliyatni kuchaytirish, adolat mezonlarini mustahkamlash, ijtimoiy nazoratni amalga oshirish va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu jihatdan axloq va huquq uyg'unligi ularning aynanlashuvini emas, balki mustaqil normativ tabiatini saqlagan holda bir-birini to'ldirishini anglatadi. Huquqiy tarbiya, axloqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilgandagina qonunlarni hurmat qilish madaniyati barqaror ijtimoiy natija beradi. Chunki qonunga hurmat faqat huquqiy bilim bilan emas, balki adolat, halollik, vijdon, burch va fuqarolik mas'uliyati kabi axloqiy omillar bilan mustahkamlanadi.

Yuqoridagi mulohazalarni hisobga olib, taklif sifatida shuni aytish mumkinki, axloq va huquq munosabatini tadqiq etishda ularni mutlaq ajratish yoki aynanlashtirish emas, balki funksional-vazifaviy uyg'unlik tamoyili asosida o'rganish maqsadga muvofiq. Huquqiy madaniyatni rivojlantirishda axloqiy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy ishonch va qonunga ongli rioya etish ko'kmasini o'zaro bog'liq jarayon sifatida shakllantirish zarur. Ta'lim va tarbiya jarayonida esa axloqiy fazilatlar va huquqiy ong yagona fuqarolik madaniyatining o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: “O'qituvchi” MU, 2021. – B. 33.
2. Арасту. Ахлоқи кабир. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2024 йил. – б 115.
3. Фозил одамлар шахри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар А.Ирисов, М. Маҳмудов, У.Отажон. Тошкент: Янги аср авлоди. 2022. – б 241-268.

4. Cerrah Z. Şâtıbî'de Hukuk ve Ahlak İlişkisi. Doktora Tezi. – İstanbul: Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2025.
5. Jurayev Sh.S. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2. – Special Issue 1. – B. 395–401.
6. Hegel G.W.F. Philosophy of Right / translated by S.W. Dyde. – Kitchener: Batoche Books, 2001.
7. Aydemir S.R. Hans H.Kelzen 'in Saf Hukuk Teorisi ve Devlet Anlayışı // Uluslararası İnsan Bilimleri Dergisi. – ISSN: 1303-5134.
8. Radbruch G. Statutory Lawlessness and Supra-Statutory Law / G. Radbruch; translated by B.L. Paulson, S.L. Paulson // Oxford Journal of Legal Studies. – 2006. – Vol. 26. № 1. – P. 1–11.
9. Durkheim E. Moral Education: A Study in the Theory and Application of the Sociology of Education. – New York: The Free Press, 1961.
10. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 96 b.